



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

8-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholini ijtimoiy qo‘llab- quvvatlashda “ijtimoiy karta” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda 897-son qarori ijrosi haqida”gi 4-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholini ijtimoiy qo‘llab- quvvatlashda “ijtimoiy karta” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 27-dekabrda 897-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi 4-6-0-Q/25-sonli qarorlarini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvardagi 4-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 897-son qarori bilan: quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ–267-son qaroriga asosan 2024-yil 1-dekabrda boshlab aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari bosqichma-bosqich “Ijtimoiy karta” axborot tizimidan (keyingi o‘rinlarda – “Ijtimoiy karta” AT) foydalangan holda ijtimoiy karta orqali taqdim etilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tomonidan “Oximus Holding Limited” (Birlashgan Arab Amirliklari) kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Hamkor) bilan “Ijtimoiy karta” axborot tizimini ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish, sanoat ekspluatatsiyasiga tushirish va takomillashtirib borish (keyingi o‘rinlarda – Loyiha) to‘g‘risida belgilangan tartibda kelishuv tuzilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha:

a) ijtimoiy kartani muomalaga chiqarish va foydalanish uchun taqdim etish moliyaviy agent vazifasini bajaruvchi O‘zbekiston Respublikasining rezident tijorat banklari (keyingi o‘rinlarda – moliyaviy agent) tomonidan amalga oshirilishi bunda;

barcha fuqarolar uchun dastlab elektron ijtimoiy karta muomalaga chiqarilishi va foydalanish uchun taqdim etilishi;

bank kartasi shaklidagi ijtimoiy karta fuqarolarning xohishiga ko‘ra muomalaga chiqarilishi va foydalanish uchun taqdim etilishi;

b) ijtimoiy kartani muomalaga chiqarish va foydalanish uchun taqdim etish bo‘yicha arizalar quyidagilar orqali taqdim etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda – YAIDXP);

“Ijtimoiy karta” mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda – mobil ilova);

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari (keyingi o‘rinlarda – “Inson” markazi) hamda alohida hollarda ijtimoiy xodimlar;

moliyaviy agent;

d) ijtimoiy kartani muomalaga chiqarish va foydalanish uchun taqdim etishi: mazkur qarorga 1-ilovada nazarda tutilgan shaxslar uchun uch ish kuni ichida bepul amalga oshirilishi. Bunda ijtimoiy karta uning amal qilish muddati tugamasidan oldin, shu jumladan, yaroqsiz holga kelganda yoki yo'qotilganda, pulli asosda almashtirilishi;

1 - ilovada nazarda tutilmagan boshqa shaxslarga ijtimoiy kartani berganlik uchun bank xizmatlari to'lovi bazaviy hisoblash miqdorining o'n foizidan oshmasligi lozim;

elektron ijtimoiy karta barcha fuqarolarga mobil ilova orqali real vaqt rejimida bepul asosda muomalaga chiqarilishi va foydalanish uchun taqdim etilishi;

Mazkur qarorga 1-ilovada nazarda tutilgan shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan va foydalanish uchun taqdim etilgan ijtimoiy karta Agentlik tomonidan belgilangan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalariga haq undirilmagan holda o'n besh kun muddatda yetkazib berilishi;

Ijtimoiy kartani samarali amaliyotga tatbiq etish hamda "Ijtimoiy karta" AT va mobil ilovaning lozim darajada ishlashini ta'minlash maqsadida:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab "Ijtimoiy karta" AT va mobil ilovani texnik qo'llab-quvvatlash ijtimoiy karta bo'yicha to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi to'lov tashkilotining tunu-kun faoliyat ko'rsatadigan texnik xizmati tomonidan amalga oshirilishi;

bunda Agentlikning "1070" qisqa raqami orqali ijtimoiy kartaga doir qabul qilingan murojaatlar mazkur kichik bandda nazarda tutilgan texnik xizmatga yo'naltirib borilishi;

b) 2025-yil 1-fevraldan boshlab:

ijtimoiy kartani muomalaga chiqarish va foydalanish uchun taqdim etish masalalari bo'yicha Agentlikning axborot-ma'lumotnoma xizmatlarini ko'rsatuvchi "1070" qisqa raqamli va tunu-kun faoliyat ko'rsatadigan xizmati (keyingi o'rinlarda - "Ishonch telefoni") faoliyati test rejimida yo'lga qo'yilishi;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari uchun ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha "Ishonch telefoni" orqali bepul SMS-xabarnoma yuborish tartibi joriy etiladi. Bunda yuboriladigan SMS-xabarnomalar ijtimoiy axborot hisoblanadi va ularni yuborish bilan bog'liq xarajatlar maxsus tariflarda Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanishi;

mobil ilova va SMS-xabarnomalar doirasida fuqarolar bilan ularning ijtimoiy himoyaga doir huquqlarini amalga oshirish va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yuzasidan doimiy va manzilli muloqot o'rnatilishi;

d) 2025-yil 1-iyuldan boshlab "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi doirasida mazkur qarorga 2-ilovada nazarda tutilgan hujjatlarning unifikatsiyalangan raqamli servislari (keyingi o'rinlarda - raqamli servis) joriy etilishi; bunda:

YAIDXP va mobil ilovada ushbu raqamli servislardan foydalanish imkoniyati yaratilishi va ular O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy tartibda qabul qilinishi; raqamli servislarning qog'oz nusxalari banklarda, notarial idoralarda, aeroportlarda ichki reyslarni ro'yxatdan o'tkazishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan o'tuvchi poyezdlarga chiqishda, davlat, korporativ va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, shu jumladan, elektron xizmat ko'rsatishda hamda fuqarolarni qabul qilishda tegishli hujjatlarni taqdim etishni talab qiladigan davlat organlari va boshqa tashkilotlarda talab etilmasligi;

e) 2025-yil yakuniga qadar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarning bank hisobvaraqlariga o'tkaziladigan ijtimoiy to'lovlar, shuningdek, mazkur qarorga 3-ilovada nazarda tutilgan imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlariga ega bo'lgan fuqarolar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi bilan integratsiya qilingan holda, elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanib, "Ijtimoiy karta" ATda yagona hisobot yuritilishi;

f) "Ijtimoiy karta" AT doirasida "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish xizmatlari (One-ID, E-imzo, MyID, Mobile-ID va boshqalar) moliyaviy agent, loyiha ofisi va to'lov tashkilotiga bepul ko'rsatilishi;

i) 2025-yil 1-oktabrdan boshlab "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish tizimi doirasida "Ijtimoiy karta" ATning identifikatsiya qilish tizimi joriy etilishi;

Mazkur bandning "v" kichik bandiga muvofiq fuqarolar o'z xohishiga ko'ra kerakli hujjatni qog'oz shaklida yoki mobil ilova orqali raqamli shaklda taqdim etish huquqiga ega;

Shunday tartib o'rnatiladiki, unga muvofiq:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab yangi tayinlangan ijtimoiy to'lovlar ijtimoiy karta orqali to'langanda, oluvchining ilgari tayinlangan boshqa ijtimoiy to'lovlari ham ijtimoiy karta orqali to'lab berilishi;

b) 2025-yil 1-fevraldan boshlab:

belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq miqdori bazaviy hisoblash miqdorining (keyingi o'rinlarda - BHM) o'ttiz foizidan oshmaydigan reabilitatsiya qilishning texnik vositalarini xarid qilish uchun mablag'lar ushbu vositalarga muhtojlik belgilangan shaxslarning ijtimoiy kartasiga o'tkazib berilishi;

ijtimoiy karta orqali to'langan nafaqa, kompensatsiya va boshqa to'lovlar (pensiya bundan mustasno) (keyingi o'rinlarda - ijtimoiy to'lov) mablag'laridan ijtimoiy to'lovlarni oluvchi oilalarning a'zolari, Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalarning a'zolari hamda oxirgi 12 oy davomida "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalarning a'zolariga spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari uchun to'lovni amalga oshirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ushbu mahsulotlar uchun to'lovni qabul qilish taqiqlanishi;

d) 2025-yil 1-apreldan boshlab ijtimoiy karta transport kartasi, shu jumladan, jamoat transporti uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan shahar yo'nalishlari bo'yicha tarif rejalaridan foydalangan holda imtiyozli transport kartasi vazifasini bajarishi;

bunda ijtimoiy kartaning transport kartasi hamda imtiyozli transport kartasi vazifalari "Avtomatlashtirilgan to'lov tizimi operatori" MCHJ bilan integratsiya qilish orqali amalga oshirilishi;

e) 2027-yil 1-yanvarda boshlab ijtimoiy to'lovlar fuqarolarning faqatgina ijtimoiy kartalariga o'tkazilishi;

belgilanishicha;

Agentlik "Ijtimoiy karta" ATni ishlab chiqish, sinovdan o'tkazish, sanoat ekspluatatsiyasiga tushirish va takomillashtirish bo'yicha davlat buyurtmachisi hisoblanishi;

loyihani amalga oshirish bo'yicha xarajatlar loyiha-texnik hujjatlariga muvofiq Hamkor tomonidan belgilangan tartibda qoplanishi;

Agentlik va Hamkor tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ta'xis etiladigan mas'uliyati cheklangan jamiyat Loyihani amalga oshirish bo'yicha davlat buyurtmasining ijrochisi (keyingi o'rinlarda - loyiha ofisi) hisoblanishi;

mobil ilova bepul asosda real vaqt rejimida elektron shaklda yuklab olinishi va o'rnatilishi;

belgilanishicha, loyiha doirasida uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridi bo'yicha Loyiha ofisi yagona yetkazib beruvchi hisoblanishi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy kartasi to'g'risidagi iizom 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

ijtimoiy kartalarni rasmiylashtirish, muomalaga chiqarishi va foydalanishi; ijtimoiy kartalarni almashtirish, amal qilishini to'xtatib turishi va tugatishi; "Ijtimoiy karta" ATning ma'lumotlar bazasini yuritishi;

belgilanishicha, ushbu qarorning 2, 3, 4 va 7-bandlari:

Toshkent shahri va Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanlarida mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran;

respublikaning boshqa hududlarida 2025-yil 1-iyuldan boshlab kuchga kirishi ma'lumot uchun qabul qilinsin

3. Mingbuloq "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi (E.Abduraxmanov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda qabul qilingan 897-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov